

ADVOKATLARNI INTIZOMIY JAVOBGARLIKKA TORTISH TARTIBI VA BOSQICHLARI

Haydarova Munisa

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20535930>

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi va bosqichlari tahlil qilinadi. Unda O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risda"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida"gi Nizom asosida intizomiy javobgarlikka tortish tartibi va bosqichlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: advokatura instituti, intizomiy javobgarlik, murojaatlar, intizomiy javobgarlikka tortish tartibi, bosqichlar, intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish.

ПОРЯДОК И ЭТАПЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ АДВОКАТОВ К ДИСЦИПЛИНАРНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Хайдарова Муниса

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: В настоящих тезисах анализируются порядок и этапы привлечения адвокатов к дисциплинарной ответственности в Республике Узбекистан. На основе Закона Республики Узбекистан «Об адвокатуре», а также Положения «О квалификационных комиссиях при территориальных управлениях Палаты адвокатов Республики Узбекистан», утвержденного приказом Министра юстиции Республики Узбекистан от 3 июля 2025 года № 15-мх, рассматриваются порядок и основные этапы привлечения адвокатов к дисциплинарной ответственности.

Ключевые слова: институт адвокатуры, дисциплинарная ответственность, обращения, порядок привлечения к дисциплинарной ответственности, этапы, возбуждение дисциплинарного производства.

PROCEDURE AND STAGES OF BRINGING ADVOCATES TO DISCIPLINARY LIABILITY

Munisa Haydarova

Master's Student, Tashkent State University of Law

Abstract: This thesis analyzes the procedure and stages of bringing advocates to disciplinary liability in the Republic of Uzbekistan. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On Advocacy" and the Regulation "On Qualification Commissions under the Territorial Departments of the Chamber of Advocates of the Republic of Uzbekistan," approved by Order No. 15-mh of the Minister of Justice of the Republic of Uzbekistan dated July 3, 2025, the paper examines the procedure and key stages of imposing disciplinary liability on advocates.

Keywords: institution of advocacy, disciplinary liability, appeals, procedure for bringing to disciplinary liability, stages, initiation of disciplinary proceedings.

KIRISH

Huquqiy davlat tamoyilini amalga oshirishning zaruriy sharti — har qanday huquqiy jarayonning aniq va adolatli tartibga solinganligidir. Advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish

tartibi ham ana shu talabga javob berishi kerak: u bir tomondan intizomiy javobgarlik choralarining o'z vaqtida va adolatli qo'llanilishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan advokatning kasbiy huquqlarini kuchli kafolatlar bilan himoya qilishi lozim. Tartibning aniq belgilanmasligi obyektivlikning yo'qolishiga, o'zboshimchalikka va, oqibatda, adolatsiz natijaga olib kelishi muqarrar. Shu bois ushbu bobda O'zbekiston Respublikasida advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibini va uning bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil etish maqsad qilindi.

Intizomiy jarayon tartibini belgilashda xalqaro tajriba ham katta ahamiyat kasb etadi. S. Qodiraliyev ta'kidlaganidek, AQSH advokaturasining American Bar Association tashkilotining "Model Rules for Lawyer Disciplinary Enforcement" hujjatida intizomiy ish yuritishning huquqiy tabiati aniq ta'riflanadi. Unga ko'ra "intizomiy ishlar na fuqarolik, na jinoyat ishidir; ular o'ziga xos turdir" degan ta'rif berilgan. Angliya va Uelsning "Solicitors Regulation Authority — Regulatory and Disciplinary Procedure Rules" hujjati esa jarayonning mazmunini belgilab beradi: «biz qoidalar va talablar buzilganida tekshiruv o'tkazamiz va intizomiy choralarini qo'llaymiz». Shu bilan intizomiy ish yuritish tegishli organ tomonidan olib boriladigan tekshiruv hamda sanksiya qo'llash tartibi sifatida huquqiy jihatdan ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasida advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida"gi Nizom (quyida Nizom deb ketiladi) asosida tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar ierarxiyasida qonun ustuvorlik qiladi va Nizom qonun normalarini to'ldiradi, biroq ulardan chetga chiqishi mumkin emas. Amaliyotda ushbu ikki hujjat o'rtasidagi bog'liqlik va ular orasidagi mumkin bo'lgan ziddiyatlar intizomiy jarayon samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish jarayonining birinchi va eng muhim bosqichi — intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi 2-qismiga asosan, intizomiy ish yuritish malaka komissiyalarining yoki Oliy malaka komissiyasining qarori bilan qo'zg'atiladi¹. Shunday qilib, ish qo'zg'atish vakolati faqat malaka komissiyasiga yuklatilgan — adliya organi, Advokatlar palatasi yoki boshqa organlar bevosita ish qo'zg'ata olmaydi, ular faqat murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu normani advokaturaning o'zini o'zi boshqarish tamoyilining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashimiz mumkin.

Nizomning 48-bandiga ko'ra intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish uchun uchta mustaqil asos belgilangan: birinchi asos — advokatura to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining, Advokatlarning kasb etikasi qoidalarining advokat tomonidan buzilishi adliya organi yoki hududiy boshqarma tomonidan aniqlanishi; ikkinchi asos — murojaatlar; uchinchi asos — sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi². Ushbu uch asosning har biri protsessual jihatdan tengkuchli, ya'ni ularning har biri ish qo'zg'atish uchun alohida va yetarli asos hisoblanadi. Biroq har bir asosning intizomiy ish yuritishni qo'zg'atishgacha bo'lgan yo'li va unga oid hujjatlar tarkibi farq qiladi.

Birinchi asosga ko'ra — hududiy boshqarma yoki adliya organi tomonidan qonunchilik buzilishining aniqlanishida — tegishli organ rahbari malaka komissiyasiga vajlarni bayon etgan holda murojaat qiladi. Murojaatda u bilan bog'liq barcha hujjatlar va materiallar ilova qilinishi shart (Nizomning 49-band). Ikkinchi asosga ko'ra — murojaatlar — hududiy boshqarma yoki adliya organiga kelib tushgan murojaatlar, sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi malaka komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi (Nizomning 49-band 2-xatboshisi). Bu

1

2

o'zgarish muhim: avvalgi nizomda "advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar" iborasi ishlatilgan bo'lsa, yangi nizomda ushbu ibora "murojaatlar" shaklida soddalashtirilib, normaning huquqiy aniqligi ta'minlandi.

Intizomiy jarayonning ikkinchi asosiy bosqichi — malaka komissiyasi majlisida intizomiy ishni ko'rib chiqish. Yangi Nizomning 52-bandiga ko'ra murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish haqida qaror qabul qiladi. Agar intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish haqida qaror qabul qilinsa, intizomiy ish yuritish komissiyaning o'sha majlisida ko'rib chiqiladi. Bu norma muhim: ish qo'zg'atish va ko'rib chiqish alohida majlislarda emas, balki bitta majlisda hal etilishi mumkin — bu jarayonni tezlashtiradi va advokatni uzoq muddatli noaniqlikdan himoya qiladi.

Ko'rib chiqish jarayonida yarashuv instituti muhim o'rin egallaydi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi 5-qismiga asosan, malaka komissiyasi qaror qabul qilguniga qadar advokat intizomiy ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan shikoyatni bergan shaxs bilan yarashuv choralari ko'rishga haqli. Biroq yangi Nizomning 55-bandida muhim istisno belgilangan: advokat advokatura qonunchiligi, kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodini muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol ravishda buzgan hamda advokatning sha'ni va advokathurani obro'sini tushiradigan qilmish sodir etganligi aniqlangan taqdirda, yarashuv qabul qilinmasdan, intizomiy ish yuritish mazmunan ko'rib chiqiladi. Bu istisno eng og'ir toifadagi huquqbuzarliklarni yarashuv yo'li bilan "yashirish" imkonini to'sib qo'yadi.

Intizomiy jarayonning uchinchi bosqichi — malaka komissiyasining qarori. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasi 4-qismiga ko'ra, intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin: ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga asosan); litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish; litsenziyaning amal qilishini tugatish. Yangi Nizomning 59-bandida malaka komissiyasining qabul qiladigan qarorlar ro'yxati kengaytirilgan: ogohlantirish to'g'risida; litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida ma'muriy sudga murojaat qilish haqida; litsenziyaning amal qilishini tugatish masalasini ko'rib chiqish to'g'risida Oliy malaka komissiyasiga murojaat qilish haqida; qo'shimcha o'rganishni hududiy boshqarmaga yuklash haqida; intizomiy jazo choralari qo'llashni rad etish va intizomiy ish yuritishni tugatish to'g'risida.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortish tartibi qonun va qonunosti hujjatlari bilan batafsil tartibga solingan bo'lib, u advokatlarning kasbiy mustaqilligini saqlash hamda intizomiy javobgarlikning adolatli qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, intizomiy ish yuritishni qo'zg'atish, uni malaka komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish va yakuniy qaror qabul qilish jarayonning asosiy bosqichlarini tashkil etadi. Mazkur bosqichlarning malaka komissiyalari vakolatiga yuklatilgani advokaturaning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Nizomda murojaatlar bilan bog'liq normalarning aniqlashtirilgani hamda ayrim protsessual tartiblarning soddalashtirilgani intizomiy jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim yangilik hisoblanadi. Shu bilan birga, yarashuv institutining qo'llanilishi advokat va murojaatchi manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qilsa, og'ir huquqbuzarliklar bo'yicha belgilangan istisnolar kasb obro'sini himoya qilishga qaratilgan. Demak,

advokatlarni intizomiy javobgarlikka tortishning amaldagi tartibi huquqiy davlat tamoyillari, adolat va kasbiy javobgarlik talablariga mos ravishda shakllantirilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 640 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Advokatura to'g'risida”gi qonuni, 1996-yil 27-dekabr, O'RQ-349-I son
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida”gi Nizom
5. Qodiraliyev S. Advokatlarning intizomiy javobgarligiga oid yangi qoidalar tahlili // Jamiyatning innovatsion rivojlanishi: ilm-fan, texnologiyalar va barqaror kelajak. Toshkent, 2025. – B. 48.